



“TASDIQLAYMAN”

“Mikrokreditbank” ATB

Boshqaruv raisi o'rinnbosari

I. A. Mamadjanov

2023-yil “24”- iyul

“Mikrokreditbank” ATB tomonidan “GREEN ENERGY” kredit moduli asosida
ajratiladigan kreditlarni qaytmaslik xataridan sug‘urtalash xizmatlarini ko‘rsatish
bo‘yicha

TEXNIK TALABLAR

Toshkent 2023

1. Umumiy talablar

Xizmat nomi:	“Mikrokreditbank” ATB tomonidan “GREEN ENERGY” kredit moduli asosida ajratiladigan kreditlarni kredit qaytmaslik xataridan sug‘ortalash
Buyurtmachi (Sug‘urta qildiruvchi) ning nomi:	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki mijozи hisoblangan tadbirkorlik subyektlari
Sug‘urta obyekti:	Qarz oluvchining “GREEN ENERGY” kredit moduli asosida ajratiladigan kreditlarni to‘lash bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi natijasida kredit (Green Energy) shartnomasi bo‘yicha yo‘qotishlar bilan bog‘liq bankning mulkiy (moliyaviy) manfaatlari.
Sug‘urta davri:	Sug‘urta polisida aniq ko‘rsatilgan va sug‘urta kompaniyasining sug‘urta shartnomasi bo‘yicha majburiyatlari amalda bo‘ladigan vaqt oralig‘i. Kredit (Green Energy) muddatiga mutanosib bo‘lgan muddat.
Sug‘urta hududi:	O‘zbekiston Respublikasi
Sug‘urta summasi:	Kredit summasining 125 foizi miqdorida.
Sug‘urta stavkasi:	1,0 foizgacha
Sug‘urta hodisasi:	Qarz oluvchining kredit bo‘yicha foiz va asosiy qarz to‘lovlarini so‘ndirish grafigida belgilangan muddatlarda 1 oydan ortiq kechiktirilishi sug‘urta hodisasi deb hisoblanadi.
Sug‘urta shartlari:	Sug‘urta shartnomasi loyihasi bank tomonidan ko‘rib chiqiladi va unga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.
To‘lov valyutasi:	O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so‘m.
Kutish davri:	20 kun
Franshiza:	Qo‘llanilmaydi
Maxsus shartlar:	<p>Sug‘ortalash kredit shartnomasi bo‘yicha neustoykalar, boshqa shaxslarning mablag‘laridan foydalanganlik uchun foizlar, sud xarajatlari uchun qo‘llanilmaydi;</p> <p>Sug‘urta hodisasi ro‘y berganligi to‘g‘risida sug‘urta qildiruvchi/qarz oluvchi tomonidan xabar berish - 30 bank kuni ichida.</p> <p>Sug‘urta kompaniyasi “Mikrokreditbank” ATB Boshqaruving 2022-yil 13-oktabrdagi 97-4-sonli qarori bilan tasdiqlangan ““Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining sug‘urta tashkilotlariga reyting baho joriy qilish metodikasi”ga asosan tanlov asosida tanlab olinadi.</p>
To‘lov shartlari:	Sug‘urta mukofoti sug‘urta shartnomasi imzolangan va kuchga kirgan kundan boshlab mijoz tomonidan 3 (uch) bank kuni ichida 100% miqdorida to‘lanadi.
Xizmatlarni yetkazib berish / ko‘rsatish shartlari:	Sug‘urta polisi shartnomasi bo‘yicha to‘lov olingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida tayyorlanishi va Buyurtmachiga

	taqdim etilishi kerak, bunda sug‘urta muddati shartnama bo‘yicha to‘lov amalga oshirilgan kundan boshlab 60 oyni tashkil qiladi.
Takliflarni topshirishning oxirgi muddati:	Xarid qilish jarayoni to‘g‘risida e’lon qilingan kundan boshlab 5 ish kuni
Sug‘urtalovchi sug‘urta kompensatsiyasini to‘lamaydigan istisno holatlar:	<ul style="list-style-type: none"> - agar sug‘urta shartnomasi tuzilgandan keyin Sug‘urta qildiruvchi/qarz oluvchi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar to‘g‘risida bila turib yolg‘on ma’lumot bergenligi aniqlansa; - agar sug‘urta hodisasi sug‘urta qildiruvchining / qarz oluvchining niyati tufayli (qasddan) sodir etilgan bo‘lsa. Ular tomonidan qasddan qilingan harakatlar zaruriy mudofaa yoki o‘ta zarurat holatida sodir etilgan vaziyatlar, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno; - yadroviy portlash, radiatsiya yoki radioaktiv zararlanish ta’sirlarida; - harbiy harakatlar, manevrilar yoki boshqa harbiy harakatlar; - sug‘urta qildiruvchi tomonidan sug‘urta hodisasi yuz bergenligi to‘g‘risida Sug‘urtalovchi o‘z vaqtida xabardor qilinmaganda.

2. Sug‘urtalovchiga qo‘yiladigan talablar:

2.1. Sug‘urtalovchi O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorida kamida **5 yillik** ish tajribasiga ega bo‘lishi shart.

2.2. Talab etilayotgan sug‘urta shartnomasini tuzish bo‘yicha litsenziya klassiga (14 klass) ega bo‘lishi shart.

2.3. “Mikrokreditbank” ATB da sug‘urta tashkiloti tomonidan oldindan 5 000 000 000 (besh milliard) so‘m miqdorida avans shaklida depozit shakllantirilishi talab etiladi. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki tomonidan har oyning 5-sanasiga 1 oy ichida ajratilgan kreditlar (Green Energy)ning kamida 35 % qismiga teng bo‘lgan miqdorida sug‘urta tashkiloti tomonidan “Mikrokreditbank” ATB da depozit mablag‘i shakllantirilishi shart.

2.4. Bank mijoji tomonidan olingan kredit (Green Energy) bo‘yicha to‘lov grafigiga asosan o‘z vaqtida to‘lanmagan asosiy va foiz qarzdorligi 1 oy (30 kun) ichida to‘lanmagan taqdirda sug‘urta tashkiloti tomonidan qoplanishi shart. Agar sug‘urta tashkiloti tomonidan muddati o‘tgan asosiy va foiz qarzdorligi o‘z vaqtida qoplanmagan taqdirda muddati o‘tgan asosiy va foiz qarzdorligi “Mikrokreditbank” ATB tomonidan sug‘urta tashkilotining depozitidan akseptsiz tarzda undirib olinadi.

2.5. Tanlovda shu kabi xizmatlarni ko‘rsatishda ishtirok etishi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan, tanlovda ishtirok etish shartlarini to‘liq bajargan, tanlov asosida sotib olingan tegishli xizmatlarni ko‘rsatish tajribasiga ega mahalliy ijrochilar ishtirok etishlari mumkin.

2.6. Tanlovda ishtirok etish uchun taklif taqdim etilgan sanada reyting agentliklaridan birining milliy shkalasi bo‘yicha amalda bo‘lgan reytingga ega bo‘lishi shart.

2.7. Ustav kapitalining eng kam miqdori - 30 mlrd. so‘m bo‘lishi shart;

2.8. So‘nggi 3 yil uchun mustaqil auditorlik kompaniyasi tomonidan tasdiqlangan moliyaviy hisobotlarga ega bo‘lishi shart.

2.9. Tanlovda ishtirok etish istagini bildirganlar “Mikrokreditbank” ATB Boshqaruvining 2022-yil 13-oktabrdagi 97-4-sonli qarori bilan tasdiqlangan ““Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining sug‘urta tashkilotlariga reyting baho joriy qilish metodikasi”da keltirilgan talablarga javob berishlari shart. “Mikrokreditbank” ATB tomonidan mazkur metodikaga asosan ishtirokchining ushbu texnik talablarining 3-bandida keltirilgan tegishli moliyaviy hisobotlaridan foydalanilgan tarzda sug‘urta tashkilotlarining reyting tahlili amalga oshiriladi.

2.10. Quyidagi ishtirokchilar tanlovda qatnashishi mumkin emas:

- buyurtmachi bilan sud jarayonida bo‘lgan sug‘urta tashkilotlari;
- insofsiz ijrochilarining yagona reyestriga kiritilgan sug‘urta tashkilotlari;
- qayta tashkil etilish, tugatilish yoki bankrotlik holatida bo‘lgan sug‘urta tashkilotlari;
- soliq va boshqa majburiy to‘lovlар bo‘yicha qarzdorligi mavjud bo‘lgan sug‘urta tashkilotlari;
- imtiyozli soliq rejimi beriladigan va (yoki) moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilganda oshkor etish va axborot berish nazarda tutilmaydigan davlat va hududlar (offshor hududlar) da ro‘yxatdan o‘tgan va/yoki hisobvaraq ochgan tashkilotlar;
- oxirgi 2 yil mobaynida sug‘urta va qayta sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish yoki cheklash faktlari mavjud bo‘lgan sug‘urta tashkilotlari;
- sug‘urta tashkilotida 30 kalendar kundan ortiq davom etadigan joriy hisob uchun kartoteka mavjud bo‘lgan sug‘urta tashkilotlari;
- ilgari tuzilgan shartnomalar bo‘yicha lozim darajada bajarilmagan majburiyatlarga ega tashkilotlar.

3. Sug‘urtalovchi quyidagi hujjatlarni taqdim qilishi shart:

3.1. Tanlovda ishtirok etish uchun tasdiqlangan yozma ko‘rinishdagi ariza (*1-shakl*).

3.2. Sug‘urtalovchining muxri bilan tasdiqlangan tashkilotning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning nusxasi.

3.3. Sug‘urta sohasidagi faoliyatni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan berilgan litsenziyaning sug‘urtalovchi muxri bilan tasdiqlangan nusxasi.

3.4. Reyting agentliklaridan birining milliy shkalasi bo‘yicha kompaniya reytingini tasdiqlovchi taklif taqdim etilgan sanada amalda bo‘lgan hujjat.

3.5. Mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan oxirgi 3 yil uchun moliyaviy hisobotlar.

3.6. Buyurtmachi bilan sud jarayonida emasligini, insofsiz ijrochilarining yagona reyestriga kiritilmaganligini, qayta tashkil etilish, tugatilish yoki bankrotlik holatida emasligini, soliq va boshqa majburiy to‘lovlар bo‘yicha qarzdorligi mavjud emasligini, imtiyozli soliq rejimi beriladigan va (yoki) moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilganda oshkor etish va axborot berish nazarda tutilmaydigan davlat va hududlar (offshor hududlar) da ro‘yxatdan o‘tmaganligini va/yoki hisobvaraq ochmaganligini, ilgari tuzilgan shartnomalar bo‘yicha lozim darajada bajarilmagan majburiyatlarga ega emasligini tasdiqlovchi kafolat xati (*2-shakl*).

3.7. Ishtirokchi haqida umumiy ma’lumot (*3-shakl*).

3.8. Tashkilot (korxona) rahbarining tanlovda ishtirok etishi mumkin bo‘lmagan taqdirda, quyidagi vakolatlarga ega bo‘lgan vakolatli vakil nomiga ishonchnoma taqdim etilishi kerak:

- a) tanlov hujjatlarini taqdim etish;
- b) buyurtmachi va ishchi organ bilan muzokaralar olib borish;

- d) tanlov yuzasidan majlislarda qatnashish;
- e) tijorat taklifining texnik va narx qismiga oid savollarga, shuningdek, boshqa masalalarga oydinlik kiritish.


3.9. Sug‘urta shartnomasi namunasi.

4. Tijorat taklifi

- 4.1. Ishtirokchi ushbu talabning 1, 2 va 3-bandlarini o‘zida ifoda etuvchi hamda talab etilgan hujjatlarni ilova qilgan holda tijorat taklifini taqdim etishi kerak.

KELISHILDI

Kichik biznes departamenti direktori



U.Abraxmatov

Risk menejment departamenti direktori



Sh.Sattarov

1-shakl

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

Nº: _____
Sana: _____

Tanlov komissiyasiga

ARIZA

“Mikrokreditbank” ATB tomonidan “GREEN ENERGY” kredit moduli asosida ajratiladigan kreditlarni kredit qaytmaslik xataridan sug‘urtalash xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha texnik talablarni o‘rganib chiqib, _____ texnik talablar va tanlov

(ishtirokchining nomi)

hujjatlariga muvofiq kredit (Green Energy) larni kredit qaytmaslik xataridan sug‘urtalash xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tanlovida qatnashish istagini bildiradi.

Taklifni tayyorlashga javobgar shaxs:

Telefon/Faks: _____

Elektron pochta manzili: _____

Rahbar: _____ *lavozimi* _____ *F.I.Sh.* _____ *imzo*

Muxr o‘rni

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

Nº: _____
Sana: _____

Tanlov komissiyasiga

KAFOLAT XATI

ushbu kafolat xati orqali o‘zining:

(ishirokchining nomi)

- “Mikrokreditbank” ATB bilan sud jarayonida emasligini;
- insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga kiritilmaganligini;
- qayta tashkil etilish, tugatilish yoki bankrotlik holatida emasligini;
- soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorligi mavjud emasligini;
- imtiyozli soliq rejimi beriladigan va (yoki) moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilganda oshkor etish va axborot berish nazarda tutilmaydigan davlat va hududlar (offshor hududlar) da ro‘yxatdan o‘tmaganligini va/yoki hisobvaraq ochmaganligini;
- ilgari tuzilgan shartnomalar bo‘yicha lozim darajada bajarilmagan majburiyatlarga ega emasligini tasdiqlaydi.

Imzolar:

Rahbar: _____ *lavozimi* _____ *F.I.Sh.* _____ *imzo*

Bosh buxgalter
(moliya bo‘limi boshlig‘i): _____ *F.I.Sh.* _____ *imzo*

Yurist: _____ *F.I.Sh.* _____ *imzo*

Muxr o ‘rni

ISHTIROKCHI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

1	Yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shaklini ko'rsatgan holda to'liq nomi	
2	Ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi ma'lumotlar (ro'yxatga olingan sana, ro'yxatga olish raqami, ro'yxatga olish organining nomi)	
3	Yuridik manzil	
4	Aloqa telefoni, faks, elektron pochta	
5	To'liq bank rekvizitlari	
6	Asosiy faoliyat	
7	Litsenziyasi	
8	Sug'urta tarifi	
9	Mas'ul xodim	

So'ralayotgan yoki shunga o'xshash xizmatlarni taqdim etish tajribasi haqida ma'lumot

Nº	Xizmatlar predmeti ro'yxati	Xaridorning ismi, uning manzili va aloqa ma'lumotlari	Xizmat muddati	Izoh

Rahbar: _____ *lavozimi* _____ *F.I.Sh.* _____ *imzo*

Muxr o'rni

Sana: «___» _____ 202_ y.